

INTERNETDAGI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR

Suyarov Akram Musayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Axborot texnologiyalari kaferdasi PhD, dotsent

akramsuyarov@mail.ru

Nasriddinova Marhabo Mexriddin qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada internetdagi tadbirkorlik faoliyatining shakllanish jarayonlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda rivojlanishdagi tizimli muammolar ilmiy asosda tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal kengayishi elektron tijorat, internet-marketing, onlayn xizmatlar, masofaviy savdo va raqamli mahsulotlar bozorini jadal rivojlantirdi. Shu bilan birga, internet tadbirkorligini amalga oshirishda kiberxavfsizlikning yetarli darajada himoyalanganligi, raqamli infratuzilmaning hududlar bo‘yicha notekisligi, huquqiy me‘yorlarning murakkabligi va yetarlicha shakllanmaganligi, xalqaro logistika zanjirlaridagi uzilishlar va iste‘molchi huquqlarining yetarlicha himoyalanganligi kabi tizimli muammolar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu muammolarni bartaraf etish internet tadbirkorligi samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. internet tadbirkorligi, elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, raqamli infratuzilma, onlayn to‘lovlar, elektron platformalar, raqamli savodxonlik, logistika tizimi, transchegaraviy savdo, iste‘molchi huquqlari.

Abstract. This article analyzes the formation processes of Internet entrepreneurship, its economic and social significance, and the systemic challenges hindering its development. In recent years, the rapid expansion of the digital economy has accelerated the growth of e-commerce, online marketing, digital services, remote trade, and the digital products market. At the same time, Internet entrepreneurship faces systemic issues such as insufficient cybersecurity, uneven digital infrastructure across regions, complex and underdeveloped legal frameworks, disruptions in international logistics chains, and inadequate protection of consumer rights. The study concludes that addressing these challenges is strategically important to enhance the efficiency of Internet entrepreneurship and further develop the digital economy.

Keywords. Internet entrepreneurship, e-commerce, digital economy, cybersecurity, digital infrastructure, online payments, electronic platforms, digital literacy, logistics system, cross-border trade, consumer rights.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы формирования интернет-предпринимательства, его экономическая и социальная значимость, а также системные проблемы, препятствующие его развитию. В последние годы быстрый рост цифровой экономики стимулировал развитие электронной торговли, онлайн-маркетинга, цифровых услуг, удаленной торговли и рынка цифровых продуктов. Вместе с тем, интернет-предпринимательство сталкивается с системными проблемами, такими как недостаточная кибербезопасность, неравномерная цифровая инфраструктура по регионам, сложные и недостаточно разработанные правовые нормы, сбои в международных логистических цепочках и недостаточная защита прав потребителей. Исследование показывает, что решение этих проблем имеет стратегическое значение для повышения эффективности интернет-предпринимательства и дальнейшего развития цифровой экономики.

Ключевые слова. Интернет-предпринимательство, электронная коммерция, цифровая экономика, кибербезопасность, цифровая инфраструктура, онлайн-

платежи, электронные платформы, цифровая грамотность, логистическая система, трансграничная торговля, права потребителей.

So'nggi yillarda zamonaviy iqtisodiyotning bir bo'lagiga aylangan internet tadbirkorligi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda keskin o'zgarishlar keltirdi. Raqamli texnologiyalar rivoji, mobil internetning keng tarqalishi, bulutli hisoblash xizmatlari va elektron to'lov tizimlarining samarali ishlashi onlayn biznesning yangi shakllarini yaratishga imkon berdi. Endilikda kichik va o'rta biznes subyektlari, shuningdek yirik korporatsiyalar mahsulot va xizmatlarni global bozorda elektron tijorat platformalari orqali taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Internet tadbirkorligi orqali kompaniyalar xarajatlarni optimallashtirishi, logistika va yetkazib berish jarayonlarini soddalashtirishi, marketing va mijozlar bilan o'zaro aloqani raqamli vositalar orqali samarali yo'lga qo'yishi ancha osonlashdi. Shu bilan birga, elektron tijorat va raqamli xizmatlar sohalarining jadal rivojlanishi yangi ish o'rinlari va malakali kadrlar talabini oshirdi, bu esa mehnat bozorini diversifikatsiyalash va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Biroq internet tadbirkorligini rivojlantirish jarayonida bir qator tizimli muammolar yuzaga kelmoqda. Avvalo, kiberxavfsizlikning yetarlicha himoyalanmaganligi va ma'lumotlar xavfi elektron tijoratning barqarorligini ta'minlashda to'siq bo'lmoqda. Shuningdek, raqamli infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekisligi, tezkor va ishonchli internet xizmatlarining cheklanganligi tadbirkorlik faoliyatini cheklashga olib keladi. Huquqiy me'yorlarning tushunarsizligi, soliq va litsenziya masalalaridagi nomuvofiqlik, shuningdek, chegaraviy savdoda logistik va bojxona to'siqlarining mavjudligi ham muhim to'siqlar sifatida ko'riladi. Bunday muammolar, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari, startaplar va yangi platformalar uchun jiddiy xalaqit yaratadi, ularning rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiradi. Shu bilan bir qatorda, iste'molchi huquqlarining yetarlicha himoyalanmaganligi, tovar va xizmat sifatini nazorat qilishdagi kamchiliklar, onlayn firibgarlik va noto'g'ri axborotning tarqalishi internet tadbirkorligini amalga oshirishda iqtisodiy va ijtimoiy xavf omillarini oshiradi. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda va davlat hamda xususiy sektor tomonidan kompleks yechimlar talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, internet tadbirkorligini rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy strategik ahamiyatga ega bo'lib, global raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion biznes muhitini yaratish va raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqola internet tadbirkorligi faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy muammolarni tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishga ta'sirini aniqlash hamda amaliy yechimlarni ilmiy asosda taklif qilishga qaratilgan.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda internet tadbirkorligi murakkab, ko'p qatlamli tizim sifatida talqin etiladi. Zamonaviy marketing nazariyasida internet marketingning bozor segmentatsiyasidagi ahamiyati va iste'molchi xatti-harakatlariga ta'siri keng yoritilgan bo'lsa, elektron savdo jarayonlarining texnologik asoslari va biznes tizimlariga integratsiyasi ham alohida o'rganilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tez o'zgaruvchan biznes modellari, ularning strategik xususiyatlari hamda kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavf va tahdidlar chuqur tahlil qilingan. Mahalliy tadqiqotlarda esa internet tadbirkorligining makroiqtisodiy, huquqiy va institutsional jihatlarini o'rganilib, raqamli transformatsiya jarayonlarining mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun ushbu sohaning normativ-huquqiy asosini belgilab beradi. Umumiy xulosalar internet tadbirkorligi tez sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi, biroq uning samaradorligini oshirishda texnologik cheklovlar va huquqiy muammolar hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqot internet tadbirkorligi faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy muammolarni aniqlash va ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda yaxlit ilmiy yondashuv qo'llanilib, iqtisodiy tahlil, solishtirma baholash, strukturaviy-funksional tahlil va ma'lumotlarni tizimli qayta ishlash usullari birgalikda ishlatilgan. Birinchi bosqichda, internet tadbirkorligi bo'yicha milliy va xalqaro statistik ma'lumotlar, jumladan, Davlat Statistika Qo'mitasi va Jahon Banki hisobotlari tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda, onlayn biznesning turli segmentlari – elektron tijorat, raqamli xizmatlar, fintech, startaplar va onlayn marketing platformalari – bo'yicha amaliy holatlar o'rganildi va ularning yuzaga kelayotgan muammolari aniqlab olindi. Tadqiqot davomida

komparativ yondashuv asosida rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Singapur) va rivojlanayotgan mamlakatlar (O‘zbekiston, Hindiston) tajribalari solishtirildi, shu orqali mavjud muammolarni bartaraf etish va samarali yechimlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, tadqiqotda mavjud ma’lumotlar chuqur tahlil qilinib, internet tadbirkorligida uchraydigan muammolarni aniqlash va ularning barqaror rivojlanishga ta’sirini baholashga e’tibor qaratildi. Mazkur yondashuv to‘siqlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqish hamda ular bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi. O‘zbekistonda elektron tijorat 2020–2024 yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi. Shu davr mobaynida internet tadbirkorligi hajmi 8,2% dan 30,1% gacha oshdi. Xalqaro taqqoslashda esa O‘zbekiston o‘rtacha rivojlanish darajasida turib, ilg‘or davlatlar — Xitoy va Turkiya bilan solishtirganda rivojlanish sur’ati pastroq bo‘lib qolmoqda. Bu holat raqamli infratuzilmaning notekisligi, yetarlicha malakali kadrlar yetishmasligi va logistika tizimining sustligi bilan bog‘liq.

1- **Jadval. Elektron tijoratning yillik o‘sish sur’ati (%)**

Yil	O‘zbekiston	Qozog‘iston	Turkiya	Xitoy
2020	8,2	12,1	21,4	27,3
2021	15,6	17,5	32,0	28,4
2022	21,3	22,8	34,6	31,1
2023	26,4	24,1	38,2	29,7
2024	30,1	25,6	40,5	33,2

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, internet tadbirkorligining rivojlanishini to‘xtatadigan asosiy muammolar texnologik, kiberxavfsizlik, huquqiy va logistika bilan bog‘liq. Texnologik muammolar orasida internet tezligi va sifatining hududlar bo‘yicha farqi, server quvvati yetarli bo‘lmagan elektron platformalar va ma’lumotlar markazlarining sustligi bor. Kiberxavfsizlik masalalariga onlayn firibgarlik, shaxsiy ma’lumotlarning yetarlicha himoyalanganligi va raqamli identifikatsiya tizimining to‘liq

shakllanmaganligi kiradi. Huquqiy cheklovlar elektron shartnomalarning yuridik kuchi bo'yicha aniqlikning yetishmasligi, xalqaro onlayn savdoda bojxona tartiblarining murakkabligi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining sustligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, logistika tizimining sekinligi, ombor infratuzilmasining yetarli emasligi va kuryer xizmatlarining sifatsizligi internet tadbirkorligining rivojlanishini sezilarli darajada cheklaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, internet tadbirkorligi katta potensialga ega soha bo'lib, raqamli platformalar onlayn bozorlarga chiqish imkoniyati, yoshlar va tadbirkorlarning qiziqishi bu sohaning o'sishini ta'minlaydi. Biroq mavjud muammolar tizimning barqaror ishlashida to'siq bo'ladi. Avvalo, kiberxavfsizlik infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmagani, ma'lumotlarni himoyalashning zamonaviy talablar bilan mos emasligi onlayn operatsiyalar xavfsizligini susaytiradi. Shuningdek, soliq va litsenziyalash jarayonlarining murakkabligi, normativ talablardagi noaniqliklar va byurokratik cheklovlar kichik va o'rta onlayn bizneslar uchun qo'shimcha yuk yaratadi. Tovar va xizmat sifati ustidan nazorat mexanizmlarining takomillashmaganligi, logistika tizimlarining sust rivojlanishi, yetkazib berish zanjirlarining barqaror emasligi elektron tijoratning operatsion jarayonlariga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, onlayn moliyaviy operatsiyalarning xavf darajasi yuqoriligi, elektron tijorat platformalarida foydalanuvchi ishonchining pastligi, raqamli marketing strategiyalarining yetarli samaradorlikka erishmayotgani raqamli bozordagi raqobatbardoshlikni cheklaydi. Davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikning sustligi, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani internet tadbirkorligi ekotizimining to'laqonli rivojlanishini murakkablashtiradi. Agar bu muammolar tizimli tarzda hal qilinsa, masalan, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoyalash texnologiyalarini modernizatsiya qilish, soliq mexanizmlarini soddalashtirish, logistika tizimlarini takomillashtirish, innovatsion biznes muhitini qo'llab-quvvatlash va foydalanuvchi ishonchini oshiruvchi raqamli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish orqali O'zbekistonda onlayn tadbirkorlikni sezilarli darajada rivojlantirish mumkin. Bu esa iqtisodiyotda keng imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. A.T. Kenjaboyev, M.Y. Jumaniyozov “Elektron biznes asoslari”.
2. World Bank. *Digital Economy for Africa: Internet-Based Entrepreneurship and Innovation*. Washington, DC: World Bank, 2021.
3. Suyarov A.M E-commerce tools on the internet and their payment instruments. London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation WORLD SCIENCE PUBLISHING LTD, LONDON, NOVEMBER, 2025. –B.373-378.
4. “ Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasi// O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni – 2020-yil 5-oktyabr, PF-6079-son.
5. O'zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonuni, 2019.
6. Raxmonov T.B. *Elektron tijoratning huquqiy asoslari*. Toshkent, 2021.